

O'ZBEK RASMIY MULOQOT ODOBI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ismatova Jasmina Muhammad-Ali qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti talabasi

Annotasiya

Maqolada o'zbek rasmiy muloqotida odobning ifoda etilishi, uning o'ziga xos xususiyatlar asosida izohga tortilgan. Shuningdek, muloqot odobi aslida unga yondosh tushunchalar bo'lgan "muloqot xulqi", "til madaniyati", "so'zlash madaniyati", "nutq madaniyati", "nutq odobi" kabi birliklar ham bir xil qo'llanib kelishi, muloqotni turli nuqtai nazardan muloqot odobining ifodalanishi kabi masalalar yoritib berilgan.

Узбекский этикет формального общения и его особенности **Абстрактный**

В статье выражение манер в узбекском официальном общении объясняется исходя из его специфических особенностей. Кроме того, с коммуникативным этикетом фактически связаны такие понятия, как «коммуникативное поведение», «языковая культура», «речевая культура», «речевая культура», «речевой этикет», которые употребляются одинаково, общение может быть определено с разных точек зрения. Объясняются такие вопросы, как выражение этикета общения.

Uzbek formal communication etiquette and its characteristics **Abstract**

In the article, the expression of manners in Uzbek official communication is explained based on its specific features. In addition, communication etiquette is actually related concepts such as "communication behavior", "language culture", "speech culture", "speech culture", "speech etiquette" are used in the same way, communication can be defined from different points of view. Issues such as expression of communication etiquette are explained.

Kalit so'zlar: *so'zlashuv madaniyati, muloqot odobi, rasmiy muloqot, muloqot turlari, nutq akti, adresat, kommunikant.*

Klyucheviye slova: *kultura rechi, etiket obsheniya, ofitsialnoye obsheniye, vidi obsheniya, rechevoy akt, adresat, kommunikator.*

Key words: *speech culture, communication etiquette, formal communication, types of communication, speech act, addressee, communicator.*

O'zbek xalqi, balki dunyo xalqlari o'rtasida muloqot odobi, muomala mas'uliyati va uning o'ziga xos madaniyatiga oid minglab maqol-matallar yaratilgan, bu borada behisob asarlar bitilgan. Bu masalalar insoniyat borki, u birga birga shakllanib boraveradi. Eng avvalida, sharq milliy madaniyatining durdonasi hisoblangan «Qutadg'u bilig», «Qobusnoma», «Hibatul-haqoyiq» kabi madaniy yodgorliklar, buyuk mutafakkirlar Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimizning bu boradagi asarlari bunga yorqin misol bo'ladi. Kaykovusning «Qobusnoma» asarida: «Gar so'zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so'zni sindirmag'il, to'g'ri ta'rif qilgil va uni bir rangda aytgil: xosga xos so'z, omiyga omiy so'z degil, toki u hikmatga muvofiq bo'lsin va eshitgon kishiga og'ir kelmasin, yo'qsa so'zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag'aylar. Undin so'ng ularning rizosiga qarab so'zlag'il, to salomat bo'lg'aysan» deyiladi. O'sha davrdan boshlab davrning buyuk daholari muloqot odobi, so'zlashishning tartib-qoidalari haqida dono fikrlarni bildirib kelishgan. Bu an'analar hozirgacha davom etmoqda va muloqot odobi, so'zlashish madaniyati o'zbek olimlarining ham diqqat markazida bo'lib kelmoqda. E. Begmatovning «Notiqning nodir boyligi», B. O'rinboyev, A.Soliyev «Notiqning mahorati», S. Mo'minov «So'zlashuv odobi», Sh.M.Iskandarova «O'zbek nutq odatining muloqot shakllari» va boshqalarning ishlari shular jumlasidandir. Bugun zamon talabiga mos ravishda tilning kommunikativ-funksional tamoyiliga asosan, nutqiy faoliyatga e'tibor tobora ortib bormoqda. Bilamizki, har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi zaruriy komponentlar sifatida albatta ishtirok etadi. Bu haqida yaratilgan ko'pgina adabiyotlarda so'zlovchi, ya'ni xabar beruvchi, gapiruvchi adresant, kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs – tinglovchi adresat, kommunikant deb, muloqotda bavoisita ishtirok etuvchi omillar esa ta'sir birliklari deb yuritiladi¹.

Inson hayotini o'zaro bir-biri bilan muloqotsiz tasavvur etish qiyin. Jamiyatni o'zaro rishtalar, qarindoshlarning samimiyatga to'la muloqotlari bog'laydi. Jamiyat a'zolari o'zaro muloqot bilan birga rasmiy shaxslar doirasida rasmiy muloqot orqali ish ko'radilar. Ammo ko'pchilik davlat tashkilotlarida rasmiy shaxslar bilan qanday muomala qilish, muloqot odobi to'g'risida jamiyat a'zolarida yetarlicha tasavvurga ega emas.

Aslida, muloqot jamiyatda barcha insonlar hayotida ahamiyatsiz deya olmaymiz. Chunki, istalgan fuqaroning rasmiy idoralarga ishi tushadi. Xo'sh, rasmiy muloqot ko'nikmasini egallash uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim? O'zbek rasmiy muloqot odobi deganda nimani tushunamiz?

¹ Сафаров Ш. Парагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008 йил. –Б.17.

Muloqot odobi aslida unga yondosh tushunchalar bo'lgan “muloqot xulqi”, “til madaniyati”, “so'zlash madaniyati”, “nutq madaniyati”, “nutq odobi” kabi birliklar ham bir xil qo'llanib kelingan.

O'zbek tilshunosligida bu mavzu bo'yicha izlanish olib borgan Sh. Iskandarova jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo'llanilishi zarur bo'lgan yoki talab etiladigan, suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish va uni kerakli ohangda olib borish uchun ishlatiladigan turg'un muloqot qoliplarining maxsus milliy kichik tizimlarini nutqiy odat deb va uni nutq madaniyatidan farqlash lozimligini ta'qidlab, shunday yozadi: “Nutq madaniyati lisoniy bilim va malakalar yig'indisi bo'lsa, nutqiy odat ma'lum millat vakillarining atrof-muhit, sharoitlar, urf-odatlar ta'sirida shakllangan bo'ladi. Nutq madaniyatiga ega bo'lish uchun shaxs o'z fikrini to'g'ri, ifodali va ta'sirchan holda yetkazish mahoratiga – sanoatiga ega bo'lmog'i talab qilinsa, nutqiy odat birliklarini o'rinli qo'llash uchun o'zaro muloqot ishtirokchilarining ma'lum mahoratga ega bo'lishi muhim emas².

Muloqot odobi hamisha hamkorlikni, bir-birini tushunishni, suhbatdoshlarning o'zaro manfaatini hisobga olishni talab etadi. Rasmiy muloqotning eng asosiy xususiyati muntazam ravishda vaqtga, reglamentga amal qilish bilan bog'liq. Chunki, rasmiy muloqotning yozilgan va yozilmagan qoidalari bo'lib, bu qoidalar majmui rasmiy etika bilan ham bog'lanadi. Rasmiy muloqot odobi doirasidagi salomlashish, o'zini va hamrohini tanishtirish, taqdimot jarayonida o'zini qanday tutish, belgilangan vaqtda ma'ruzani tamomlash, tashrif qog'ozidan foydalanish, rasmiy yozishmalar, ish yuzasidan esdalik sovg'alarini qanday berish va qabul qilish qoidalari kabilarni rasmiy etika qoidalariga kiritish mumkin.

O'zbek xalqida muloqot avvalidagi salomlashish, so'rashida ham boshqa millat vakillariga qaraganda juda katta farq mavjud. Muloqot boshlashdan avval u rasmiy yoki norasmiy bo'lsin xalqimizda bir-biri bilan yaqin insonlardek juda yaqin olib so'rashiladi. Masalan, “Assalomu alaykum, uydagilar yaxshi yurishibdimi? Ishlaringiz yaxshimi? Charchamay ishlab yuribsizmi?” kabi birliklardan foydalanamiz. Erkak kishi bo'lsa qo'l ushlab, yoki kuksiga qo'l quyib salomlashishi ham milliylikimiz belgisi deyishimiz mumkin. Salomlashishning o'zaro turi ham milliy an'analarga ko'ra farqlanadi. Rasmiy muloqot qoidalariga ko'ra AQShda suhbatdoshlar o'zini tanishtirishi va qo'lni qattiq siqishlari lozim ekan. Buyuk Britaniyada esa qo'lni yengil siqib qo'yib, shundan so'ng biroz uzoqlashish zarur ekan. Braziliyada qattiq va davomli qo'l siqish ko'z qarashi bilan birga kechadi. Xitoyda ko'p narsa suhbatdoshlarning yoshiga bog'liq.

N. I. Formanovskaya muloqotni turli nuqtai nazardan quyidagi turlarga bo'ladi:

² Сафаров Ш. Парагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008 йил. –Б. 22

1. Kommunikantlarning makon va zamonga nisbatan holatiga ko'ra: yuzma-yuz (kontakt) – masofali (distant) muloqot.
2. Vositachilik qiluvchi “apparat”ning mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra: bevosita – bivosita muloqot.
3. Til birliklarining shakllanishiga ko'ra: og'zaki – yozma muloqot.
4. So'zlovchi va tinglovchi pozitsiyasiga ko'ra: Dialogik-monologik muloqot.
5. Muloqot ishtirokchilari miqdoriga ko'ra: shaxslararo-ommaviy muloqot.
6. Muloqot shart-sharoiti va kommunikantlarning o'zaro munosabatiga ko'ra: (xususiy) norasmiy-rasmiy muloqot³.

Xulosa qilib aytganda, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilishdir. Shu sababli bo'lsa kerakki, kommunikatsiya hodisasiga turli mualliflar tomonidan berilayotgan barcha ta'riflar asosida ijtimoiy kommunikatsiyani insonlarning belgilar vositasida bajaradigan o'zaro «axborot - ma'no hamkorligi» sifatidagi talqini yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 110 б.
3. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 198-204.
4. Narxodjayeva X. “Rasmiy nutqiy muloqotning lingvomadaniy aspekti.”. – Monografiya. – Qarshi, 2023. – 110 b.
5. Тоирова Г. Этносоциопрагматика ёки прагматик социолингвистика ҳақида. БухДУ илмий ахбороти. 2008, № 1. – Б. 53-55.
6. Содиқова Ш. Ўзбек тилида хурмат категорияси. Монография. Тошкент, 2010.
7. Сиддиқ Мўмин. Маънавий қадриятлар: муомала сирлари. – Тошкент, 1994.
8. Ҳожиёва. Ҳ. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти.: Филол. фанлари номзоди... дис. – Самарқанд, 2001. – Б. 39.

³ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Монография. Фарғона, 2021.